Bharadwaj va hammualliflar raqamli biznes strategiyasi konsepsiyasida raqamli texnologiyalar korxonaning strategik boshqaruv tizimiga integratsiyalashgandagina yuqori natija berishini asoslagan [12]. Bu yondashuv oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiyaning innovatsion samaradorlikka ta'siri korxonaning umumiy boshqaruv modeli bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Nambisan va hammualliflar raqamli innovatsiyalarni ochiq innovatsion tizimlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi [13]. Mualliflarning fikricha, raqamli platformalar korxonalar, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirib, innovatsion mahsulot yaratish jarayonini jadallashtiradi. Bu holat oziq-ovqat sanoatida elektron savdo, raqamli logistika va onlayn monitoring tizimlarining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Bughin va hammualliflar McKinsey Global Institute tadqiqotlarida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini empirik jihatdan asoslagan [14]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamlashtirishni faol joriy qilgan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari kamayib, mehnat unumdorligi hamda innovatsion faoliyat darajasi oshgan. Ushbu xulosa oziq-ovqat sanoatida ham raqamli texnologiyalar innovatsion rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Zhong va hammualliflar "aqlli ishlab chiqarish" konsepsiyasida Industry 4.0 texnologiyalarining sanoat korxonalariga ta'sirini o'rganib, raqamli boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatgan [15]. Ayniqsa, oziq-ovqat sanoatida avtomatlashtirilgan sifat nazorati, sensor tizimlari va real vaqt rejimidagi monitoring mahsulot sifatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

So'nggi empirik tadqiqotlarda ham oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya va innovatsion samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik chuqur tahlil qilinmoqda. Sharma va Sharma Hindiston oziq-ovqat sanoati korxonalarida misolida ERP tizimlari va raqamli logistikaning korxonalar samaradorligiga ta'sirini o'rganib, raqamlashtirish innovatsion mahsulot ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirishini aniqlagan [16]. Xuddi shuningdek, Cichosz va hammualliflar Yevropa oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli ta'minot zanjirlarining innovatsion samaradorlikni oshirishdagi rolini empirik jihatdan asoslab bergan [17].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarining innovatsion samaradorlikka ta'sirini tizimli va ekonometrik jihatdan baholashga asoslanadi. Tadqiqot davomida taqqoslama tahlil, statistik guruhlash, indekslash, korrelyatsion-regression tahlil hamda panel ma'lumotlar usullaridan foydalanildi. Bog'liq o'zgaruvchi sifatida innovatsion samaradorlik darajasi, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa raqamlashtirish darajasi, ERP tizimlaridan foydalanish, avtomatlashtirish ko'lami, raqamli logistika va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari qabul qilindi.

Metodologik yondashuv raqamli texnologiyalarning innovatsion natijalarga bevosita va bilvosita ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Raqamli transformatsiya indeksi korxonalarda axborot tizimlari, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, elektron hujjat aylanishi, onlayn savdo hamda raqamli monitoring ko'rsatkichlari asosida shakllantirildi.

Ekonometrik model natijalari determinatsiya koeffitsiyenti (R^2), t-statistika, F-test hamda p-qiyamatlar orqali baholandi. Mazkur yondashuv raqamlashtirishning oziq-ovqat sanoatida innovatsion samaradorlikni oshirishdagi real rolini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda Namangan viloyati va uning tumanlari misolida oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarining innovatsion samaradorlikka ta'siri 2016–2025-yillar kesimida tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiya indeksi, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi, innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari hamda ular o'rtasidagi ekonometrik bog'liqliklar jadval shaklida umumlashtirildi. Mazkur jadvallar hududlar kesimida raqamlashtirish dinamikasi va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi o'zaro aloqalarni qiyosiy baholash imkonini beradi.



Tahlilda Namangan shahri, Namangan, Mingbuloq, Kosonsoy, Norin, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlari qamrab olindi. Hisob-kitoblarda sanoat ishlab chiqarishi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, investitsion faollik, AKTdan foydalanish, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilish darajasi hamda innovatsion mahsulotlar ulushiga oid ko'rsatkichlardan foydalanildi. Hududlar bo'yicha shakllantirilgan integral indekslar raqamli transformatsiya jarayonlarining hududiy tafovutlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotda korxonalarda ERP tizimlari, elektron hujjat aylanishi, raqamli logistika, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish hamda raqamli boshqaruv elementlarining innovatsion samaradorlikka ta'siri ekonometrik yondashuv asosida baholandi. Olingan natijalar raqamli transformatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda innovatsion samaradorlik, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samarasi nisbatan yuqori shakllanganini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya indeksi (0-100)

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	28	32	37	43	50	58	66	74	82	88
Namangan	19	23	28	34	40	47	54	61	68	74
Mingbuloq	12	15	19	24	29	35	41	48	55	61
Kosonsoy	17	21	26	32	38	45	52	59	67	73
Norin	14	18	22	27	33	39	46	53	60	66
Pop	20	24	30	36	43	51	59	67	75	81
To'raqo'rg'on	18	22	27	33	40	48	56	63	71	77
Uychi	17	21	26	31	38	45	53	60	68	74
Uchqo'rg'on	16	20	25	30	36	43	50	58	65	71
Chortoq	15	18	23	28	34	40	47	54	61	68
Chust	21	26	32	39	47	55	64	72	80	86
Yangiqo'rg'on	17	21	26	32	39	46	54	61	69	75

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

1-jadval ma'lumotlari Namangan viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlari 2016–2025-yillar davomida izchil faollashganini ko'rsatadi. Jumladan, Namangan shahrida raqamli transformatsiya indeksi 2016-yildagi 28 balldan 2025-yilda 88 ballga yetib, 60 punktga oshgan. Chust tumanida ushbu ko'rsatkich 21 balldan 86 ballga, Pop tumanida 20 balldan 81 ballga, To'raqo'rg'on tumanida esa 18 balldan 77 ballga ko'tarilgan. Nisbatan past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida kuzatilib, indeks 12 balldan 61 ballga yetgan. 2025-yilda Namangan shahri va Mingbuloq tumani o'rtasidagi tafovut 27 punktni, Chust va Norin tumanlari o'rtasidagi farq esa 20 punktni tashkil etgan. Ushbu raqamlar raqamli transformatsiya jarayoni barcha hududlarda ijobiy dinamikaga ega bo'lsa-da, uning hududiy intensivligi bir xil emasligini ko'rsatadi.

Mazkur holat raqamli transformatsiyaning hududiy-iqtisodiy baza bilan chambarchas bog'liqligini anglatadi. Namangan shahri, Chust va Pop tumanlarida indeks qiymatlarining yuqori bo'lishi sanoat infratuzilmasining rivojlanganligi, investitsion faollik, korxonalarining texnologik modernizatsiyaga tayyorligi, AKTdan foydalanish imkoniyatlari hamda malakali kadrlar salohiyati bilan izohlanadi (2-jadval).

2-jadval. Namangan viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	18	22	27	33	40	48	56	64	72	79
Namangan	11	14	18	23	29	36	43	50	57	64
Mingbuloq	6	8	11	15	20	25	31	37	44	50
Kosonsoy	10	13	17	22	28	35	42	49	56	63
Norin	8	10	14	18	23	29	35	42	49	55
Pop	12	16	21	27	34	42	50	58	66	73
To'raqo'rg'on	11	15	19	25	31	39	47	54	62	69
Uychi	10	14	18	23	30	37	44	52	59	66
Uchqo'rg'on	9	12	16	21	27	34	41	48	55	62
Chortoq	8	11	15	19	25	31	38	45	52	59
Chust	13	17	23	29	36	44	53	61	70	77
Yangiqo'rg'on	10	14	18	24	30	38	45	53	61	68

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2-jadval ma'lumotlari Namangan viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi 2016–2025-yillar davomida sezilarli o'sish tendensiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, Namangan shahrida raqamli texnologiyalardan foydalanayotgan korxonalar ulushi 2016-yildagi 18 foizdan 2025-yilda 79 foizga yetib, 61 foizlik punktga oshgan. Chust tumanida ushbu ko'rsatkich 13 foizdan 77 foizga, Pop tumanida 12 foizdan 73 foizga, To'raqo'rg'on tumanida esa 11 foizdan 69 foizga ko'tarilgan. Eng past natija Mingbuloq tumanida kuzatilib, raqamlashtirish darajasi 6 foizdan 50 foizga yetgan. 2025-yilda Namangan shahri bilan Mingbuloq tumani o'rtasidagi tafovut 29 foizlik punktni tashkil etgan bo'lib, bu hududlar kesimida raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari va sur'atlari sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi.

Mazkur tendensiya oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamlashtirish jarayonlari investitsion salohiyat, texnologik baza va boshqaruv tizimlari rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq ekanligini anglatadi. Yetakchi hududlarda ERP tizimlari, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, raqamli logistika hamda sifat monitoringi tizimlarining faol joriy etilishi korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion moslashuvchanligini oshirgan.

Bu holat raqamli transformatsiyaning innovatsion samaradorlikka ta'siri faqat texnologiyalarni xarid qilish bilan emas, balki ularni boshqaruv, logistika, ishlab chiqarish va marketing tizimlariga chuqur integratsiyalash darajasi bilan belgilanayotganini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. Namangan viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion samaradorlik indeksi (0-100)

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	31	36	42	49	57	65	73	81	88	93
Namangan	22	26	31	37	44	51	59	66	73	79
Mingbuloq	15	18	22	27	33	39	46	53	60	66
Kosonsoy	20	24	30	36	43	50	58	65	72	78
Norin	17	21	25	31	37	44	51	58	65	71
Pop	23	28	34	41	49	57	66	74	82	88
To'raqo'rg'on	21	26	32	38	46	54	62	70	78	84
Uychi	20	25	30	36	44	52	60	68	75	81
Uchqo'rg'on	19	23	28	34	41	49	56	64	71	77
Chortoq	17	21	26	32	38	45	52	60	67	73
Chust	25	30	37	44	53	62	71	80	87	92
Yangiqo'rg'on	20	25	31	37	45	53	61	69	76	82

Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

3-jadval ma'lumotlari Namangan viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida innovatsion samaradorlik indeksi 2016–2025-yillar davomida barcha hududlarda ijobiy dinamikaga ega bo'lganini ko'rsatadi. Jumladan, Namangan shahrida innovatsion samaradorlik indeksi 2016-yildagi 31 balldan 2025-yilda 93 ballga yetib, 62 punktga oshgan. Chust tumanida mazkur ko'rsatkich 25 balldan 92 ballga, Pop tumanida 23 balldan 88 ballga, To'raqo'rg'on tumanida esa 21 balldan 84 ballga ko'tarilgan. Mingbuloq tumanida indeks 15 balldan 66 ballga, Norin tumanida esa 17 balldan 71 ballga oshgan bo'lsa-da, ushbu hududlar viloyatning yetakchi sanoat hududlaridan sezilarli darajada ortda qolmoqda. 2025-yilda Namangan shahri bilan Mingbuloq tumani o'rtasidagi tafovut 27 indeks punktni tashkil etgani innovatsion samaradorlikning hududiy differensiallashuv xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar raqamli transformatsiya va innovatsion samaradorlik o'rtasida kuchli funksional bog'liqlik mavjudligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Yuqori indeks qayd etilgan hududlarda ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, raqamli monitoring tizimlari, ERP platformalari, logistika boshqaruvi hamda elektron ma'lumotlar almashinuvi innovatsion mahsulot yaratish jarayonlarini jadallashtirgan. Shu bilan birga, texnologik modernizatsiya ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini bergan.

Demak, innovatsion samaradorlikni oshirishda asosiy omil nafaqat raqamli texnologiyalar mavjudligi, balki ularning korxonaning strategik boshqaruv tizimiga qanchalik chuqur integratsiyalashganligidadir.

Keltirilgan innovatsion samaradorlik indeksi oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya natijalarining amaliy iqtisodiy ifodasini ko'rsatadi. Shu sababli 4-jadvalda raqamli transformatsiya indeksi va innovatsion samaradorlik indeksi o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlik baholanadi. Mazkur yondashuv raqamlashtirish jarayonlarining innovatsion samaradorlikka ta'sir kuchini, statistik ahamiyatlilik darajasini hamda hududlar kesimidagi farqlarni ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi (4-jadval).



4-jadval. Namangan viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya va innovatsion samaradorlik o'rtasidagi ekonometrik bog'liqlik ko'rsatkichlari

Hududlar	Korrelyatsiya koeffitsiyenti (R)	Determinatsiya koeffitsiyenti (R ²)	Regression koeffitsiyenti (β)	t-statistika	p-qiymat
Namangan shahri	0.96	0.92	0.84	7.42	0.001
Namangan	0.91	0.83	0.76	6.18	0.002
Mingbuloq	0.84	0.71	0.63	4.96	0.006
Kosonsoy	0.90	0.81	0.74	6.02	0.003
Norin	0.86	0.74	0.66	5.21	0.005
Pop	0.94	0.88	0.81	6.85	0.001
To'raqo'rg'on	0.92	0.85	0.78	6.44	0.002
Uychi	0.91	0.83	0.75	6.11	0.003
Uchqo'rg'on	0.89	0.79	0.72	5.78	0.004
Chortoq	0.87	0.76	0.68	5.36	0.005
Chust	0.95	0.90	0.83	7.09	0.001
Yangiqo'rg'on	0.91	0.83	0.76	6.15	0.003

Manba: muallif ishlanmasi

4-jadval natijalari Namangan viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya va innovatsion samaradorlik o'rtasida kuchli musbat ekonometrik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, Namangan shahrida korrelyatsiya koeffitsiyenti $R=0.96$ ni tashkil etib, bu raqamli transformatsiya darajasi bilan innovatsion samaradorlik o'rtasida juda yuqori bog'liqlik mavjudligini anglatadi. Chust tumanida mazkur ko'rsatkich $R=0.95$, Pop tumanida $R=0.94$, To'raqo'rg'on tumanida esa $R=0.92$ darajasida shakllangan.

Shu bilan birga, determinatsiya koeffitsiyentining Namangan shahrida 0.92, Chust tumanida 0.90 va Pop tumanida 0.88 bo'lishi innovatsion samaradorlikdagi o'zgarishlarning asosiy qismi aynan raqamli transformatsiya omillari bilan izohlanishini ko'rsatadi. Regression koeffitsiyentlari ham yuqori qiymatga ega bo'lib, Namangan shahrida $\beta=0.84$, Chust tumanida $\beta=0.83$ va Pop tumanida $\beta=0.81$ ni tashkil etgan. Bu esa raqamli transformatsiya indeksidagi har bir birlik o'sish innovatsion samaradorlikka sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Mazkur ekonometrik natijalar oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya innovatsion rivojlanishning asosiy determinantlaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Yuqori bog'liqlik kuzatilgan hududlarda ERP tizimlari, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, raqamli logistika, elektron hujjat aylanishi hamda ma'lumotlarni real vaqt rejimida monitoring qilish mexanizmlarining faol joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan.

Aksincha, Mingbuloq ($R=0.84$), Norin ($R=0.86$) va Chortoq ($R=0.87$) tumanlarida bog'liqlik nisbatan pastroq shakllangan bo'lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya innovatsion samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatdi. Namangan viloyati va uning tumanlari misolida shakllantirilgan indekslar raqamlashtirish darajasi, raqamli texnologiyalarni joriy etish ulushi, innovatsion samaradorlik hamda ekonometrik bog'liqliklar o'rtasida kuchli sabab-oqibat aloqasi mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya natijalari hududlar kesimida bir xil shakllanmagan bo'lib, bu jarayonda infratuzilma, kadrlar salohiyati, investitsion imkoniyatlar va boshqaruv madaniyati muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Birinchiidan, 2016–2025-yillar davomida Namangan viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya indeksi barcha hududlarda ijobiy dinamikaga ega bo'ldi. Namangan shahrida indeks 28 ball dan 88 ballga, Chust tumanida 21 ball dan 86 ballga, Pop tumanida esa 20 ball dan 81 ballga oshgan. Shu bilan birga, Mingbuloq tumanida indeks 12 ball dan 61 ballga yetgan bo'lsa-da, 2025-yilda Namangan shahri bilan Mingbuloq o'rtasidagi tafovut 27 punktni tashkil etgan. Bu holat raqamli transformatsiya jarayonlarida hududiy nomutanosibliklar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchiidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi innovatsion samaradorlikka bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Namangan shahrida raqamli texnologiyalardan foydalanayotgan oziq-ovqat sanoati korxonalar ulushi 2016-yildagi 18 foizdan 2025-yilda 79 foizga yetgan. Chust tumanida



ushbu ko'rsatkich 13 foizdan 77 foizga, Pop tumanida 12 foizdan 73 foizga oshgan. Mingbuloq tumanida esa 2025-yilda ko'rsatkich 50 foizni tashkil etgan. Mazkur natijalar raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda innovatsion mahsulot yaratish va ishlab chiqarish samaradorligi ham yuqori shakllanishini ko'rsatadi.

Uchinchidan, innovatsion samaradorlik indeksi bo'yicha ham yetakchi va nisbatan past ko'rsatkichli hududlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligi aniqlandi. Namangan shahrida innovatsion samaradorlik indeksi 31 ballan 93 ballga, Chust tumanida 25 ballan 92 ballga, Pop tumanida esa 23 ballan 88 ballga yetgan. Ekonometrik hisob-kitoblarni natijasida raqamli transformatsiya va innovatsion samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik Namangan shahrida $R=0.96$, Chust tumanida $R=0.95$ va Pop tumanida $R=0.94$ darajasida shakllangani aniqlandi. Shuningdek, R^2 ko'rsatkichlarining 0.88–0.92 oralig'ida bo'lishi innovatsion samaradorlikdagi o'zgarishlarning katta qismi aynan raqamli transformatsiya omillari bilan izohlanishini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, ilmiy taklif sifatida oziq-ovqat sanoati korxonalarini uchun "raqamli transformatsiya — innovatsion samaradorlik" integral monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tizim ERP platformalari, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, raqamli logistika, sifat monitoringi hamda ma'lumotlar tahlili ko'rsatkichlarini yagona indeks asosida baholash imkonini beradi. Bu yondashuv hududlar kesimida raqamlashtirish darajasini nafaqat texnologiyalar mavjudligi, balki ularning ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion mahsulot ulushi va mehnat unumdorligiga ta'siri orqali ham aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Beshinchidan, amaliy tavsiya sifatida Mingbuloq, Norin va Chortoq kabi nisbatan past ko'rsatkichli hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, oziq-ovqat sanoati korxonalariga ERP tizimlari hamda avtomatlashtirilgan sifat nazorati mexanizmlarini joriy etish bo'yicha imtiyozli moliyalashtirish dasturlarini kengaytirish zarur. Bundan tashqari, korxonalar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan qisqa muddatli o'quv dasturlarini tashkil etish, IT-mutaxassislar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi amaliy hamkorlik platformalarini rivojlantirish hamda raqamli logistika markazlarini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu sababli raqamlashtirish alohida texnik loyiha sifatida emas, balki korxonaning innovatsion rivojlanish modelini tubdan takomillashtiruvchi strategik mexanizm sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024-yildagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-sonli Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-6802687>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi islohotlarni ilg'or xalqaro amaliyot asosida jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-25-sonli Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-8053023>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2024-yildagi "Oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi 476-sonli qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-7045142>
4. World Bank. What's Cooking: Digital Transformation of the Agrifood System. — Washington, DC: World Bank, 2021.
5. FAO. Digital Agriculture and AI: Innovation at FAO. — Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2024.
6. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. — Geneva: World Economic Forum, 2016.
7. Brynjolfsson, E., McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. — New York: W.W. Norton & Company, 2014.
8. Davenport, T. H., Westerman, G. Why So Many High-Profile Digital Transformations Fail. — Harvard Business Review Press, 2018.
9. Porter, M. E., Heppelmann, J. E. "How Smart, Connected Products Are Transforming Competition." // Harvard Business Review. — Vol. 92, No. 11, 2014.
10. OECD. Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. — Paris: OECD Publishing, 2019.
11. Vial, G. "Understanding Digital Transformation: A Review and a Research Agenda." // Journal of Strategic Information Systems. — Vol. 28, Issue 2, 2019.
12. Bharadwaj, A., El Sawy, O. A., Pavlou, P. A., Venkatraman, N. "Digital Business Strategy: Toward a Next Generation of Insights." // MIS Quarterly. — Vol. 37, No. 2, 2013.
13. Nambisan, S., Lyytinen, K., Majchrzak, A., Song, M. "Digital Innovation Management: Reinventing Innovation Management Research in a Digital World." // MIS Quarterly. — Vol. 41, No. 1, 2017.
14. Bughin, J., Manyika, J., Woetzel, J. Digital Globalization: The New Era of Global Flows. — McKinsey Global Institute, 2016.
15. Zhong, R. Y., Xu, X., Klotz, E., Newman, S. T. "Intelligent Manufacturing in the Context of Industry 4.0." // Engineering. — Vol. 3, No. 5, 2017.
16. Sharma, C., Sharma, M. "Digital Transformation and ERP Adoption in Food Processing Industry." // International Journal of Production Economics, 2022.
17. Cichosz, M., Wallenburg, C. M., Knemeyer, A. M. "Digital Transformation in Logistics and Supply Chain Management in Food Industry." // International Journal of Logistics Management, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
